

MAKTAB O'QITUVCHILARIDA KASBIY MAS'ULIYAT RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yorboboyeva Iroda Baxriddinovna

*Surxondaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi*

yorboboyevai@gamil.com

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda maktab ta'lim tizimini rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida maktab ta'limini zamon talabiga mos ravishda modernizatsiya qilish, ta'limning mazmun-mohiyatini o'zgartirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Darhaqiqat, yurtimiz kelajagi uchun har tomonlama fidoyi, bilimli, barkamol mutaxassislarni tayyorlash ishlari hozirgi kunda, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun o'ta muhimdir. Qolaversa, bo'lajak kasb egalarini kasbiy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli qilib tarbiyalash va jahon andozalariga mos tarzda o'qitish jamiyatimiz oldidagi eng asosiy dolzarb masalalardan biri sanaladi. Shu bois, Respublikamiz hukumati hozirgi kunda mamlakat ravnag'i va kelajagi uchun ta'lim sohasini isloh etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturimizda nazarda tutilgan vazifalar to'liq amalga oshgan taqdirda ular birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi. Ikkinchidan, ta'limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi. Har qanday inson endigina kasbiy jihatdan kamol topib kelayotgan bir davrda jamiyatdan munosib o'rin topishi kerak.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirishning o'ziga xos muammoli va murakkab tomonlari mavjud. O'tgan davr ichida jahonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ayniqsa, siyosiy sohalarda kuzatilayotgan keskin o'zgarishlar, iqtisodiy jabhadagi beqarorlik insonlarning dunyoqarashi, xulq-atvori, turmush tarzi hamda ularning kasbiy faoliyatiga ta'sir etib, bu sohalarda jiddiy o'zgarishlarga yuz tutishini taqozo etmoqda. O'qituvchining o'z kasbiga munosabati, mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy mas'uliyatining namoyon bo'lishi masalasi juda muhim ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, bevosita uning ilmiy, ma'naviy, moddiy salohiyatini, ichki hamda kelajakdagi iqbolini belgilaydi. Shuningdek, bu mavzu har tomonlama izchil o'rganilishi, tadqiq etilishi lozim bo'lgan va undan kelib chiqqan holda tegishli chora-tadbirlar, istiqbol rejalari tuzilishi joiz muammolardan biri hisoblanadi.

Chunki insonda kasbiy o'z-o'zini anglash, kasbiy yaroqlilik, yoshlarning yetuk mutaxassis sifatida shakllanishi kabi masalalar doimo hukumatning diqqat

markazida bo'lsada, ammo shaxsda kasbiy mas'uliyat hissi namoyon bo'lishining psixologik qonuniyatlari hali-hanuz dolzarb yechimlar kutmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiy o'zgarishlar tufayli qaysidir kasb-hunar sohalari va mutaxassisliklar uchun jamiyat talabi ancha susaygan bir paytda ishlab chiqarishda kadrlar faoliyatini to'g'ri boshqarish imkoniyatining yo'qolayotganligi hamda kasb egallashdagi, mutaxassislarni tayyorlashdagi muammolar ancha jiddiy masalalardan biri sifatida gavdalanmoqda. Shuningdek, kasbiy kamolotga erishish shaxs faoliyatining uzoq muddatli davrini qamrab olgan bo'lib, bunda ijtimoiy mavqe, yashash tarzi va avlodlar o'rtasidagi an'analarning davom ettirilishi bilan ham tavsiflanishini kundalik hayotning o'zi namoyon etmoqda.

Ma'lumki, inson faoliyatida mas'uliyat fenomeni alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning shakllanishi uchun bo'lajak kadrlar psixologik va pedagogik ko'makka muhtoj sanaladi. Buning uchun har bir sohada yetuk mutaxassislarni yetishtirayotgan pedagoglar uchun maxsus psixologik o'quv qo'llanmalar shart sanaladi. Ushbu qo'llanmalar orqali har bir pedagog, bo'lajak kasb egalaridagi kasbiy mas'uliyat shakllanishining psixologik asoslari yuzasidan bilim va ko'nikmalar orttira boradi.

Demak, biz o'rganayotgan mavzu uchun ilmiy zarurat va asos bor. Va bu mahalliy psixologik tadqiqotlarimizda ilk bor tadqiq etilayotgan dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Qolaversa, mas'uliyatli mutaxassis sifatida kamol topishida kasbiy mas'uliyatlilikni oshirish ishlariga imkon beruvchi bir qator omillarni sanab o'tish mumkin. Ular:

1. Hozirgi kun mutaxassislariga qo'yiladigan kasbiy va shaxsiy talablarning o'sib borayotganligi;
2. Kasbiy o'z o'zini anglashga sabab bo'luvchi omillarning davriy xususiyatga egaligi va kasblar to'g'risidagi ijtimoiy ideallarda yagona me'yorning mavjud emasligi;
3. Kasbiy yaroqlilikning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga, bozor munosabatlariga hamohang o'zgarayotganligi;
4. Kasb va tegishli mutaxassislik yo'nalishlari o'rtasidagi tafovutning keskin ortayotganligi;
5. Ayrim talaba yoshlarning o'z kasbiy yo'nalishlaridagi istiqbol rejalarini belgilay olish qobiliyatiga ega emasligi va hokazo.

O'qituvchi kasbi, har doim ham jamiyatda eng muhim kasblardan biri hisoblanadi, chunki yoshlarning kelajagi uning mehnatiga bog'liq. Bu ko'p vaqtini bolalarni tarbiyalash va o'qitishga professional ravishda sarflaydigan yagona odam. Ta'lim va tarbiya o'qituvchi faoliyatidagi ikkita asosiy funktsiyadir. Bugungi kunda o'qituvchiga umuminsoniy ta'lim, bilimdonlik, onglilik, ilg'orlik, qiziqarli dars o'tkazish, qiziqarli topshiriqlar berish kabi juda yuqori kasbiy talablar

qo'yilmoqda. O'qituvchilarning kasbiy charchashi, o'z navbatida, pedagogik jarayonning yomonlashishiga, ish sifatining pasayishiga olib keladi, bu esa psixologik va shaxsiy norozilikka olib keladi. Ustozning qancha tajribasi, ortida qancha yillik mehnati borligi muhim emas. Uning psixologik xotirjamligi muhim ahamiyatga ega, bu uning mehnat faoliyatining oyna tasviridir. Shuning uchun maktab psixologlari va ma'muriyatining asosiy vazifalaridan biri nafaqat o'quvchilarning, balki o'qituvchilarning ham psixologik holatidir.

Shu bois ham jamiyatimiz rivojlanishi bilan bog'liq talablar va yuqorida keltirilgan jihatlarning kasbiy mas'uliyat fenomeni bilan bog'liq ravishda tadqiq etish, jamiyatimiz va mamlakatimiz psixologiya fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

O'qituvchining mas'uliyati – bu uning ishining professional sifati. Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ta'lim tizimi madaniy va tarixiy rivojlanish modelining o'zgarishi bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Yirik yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishda aynan o'qituvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Turli yangiliklarni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish, yangi sharoitda o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun esa o'qituvchi zarur darajada mas'uliyat va kasbiy mahoratga ega bo'lishi kerak.

Mas'uliyat - bu o'qituvchining vaziyatni batafsil tahlil qilish, muayyan vaziyatda o'z harakatlari yoki harakatsizligi oqibatlarini (butun oqibatlar to'plamini) oldindan bashorat qilish, o'z harakatlarining shaklini tanlash va qabul qilish qobiliyatini tavsiflovchi shaxsiy xususiyatdir. O'qituvchining ta'lim tashkilotidagi faoliyati uchun mas'uliyati talabalarga bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishda yordam berishdan iborat.

Bir qator kasbiy fazilatlar o'qituvchining pedagogik mas'uliyatining tarkibiy qismlari bo'lib xizmat qiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

shaxsning kasbiy yo'nalishi; kasbiy ideallar, tanlangan kasbga sadoqat; tashkilot; tashabbus; talabchanlik; adolat; moslashuvchanlik; intellektual faoliyat; ijodkorlik; asab tizimining barqarorligi; yuqori hissiy va irodali ohang.

O'qituvchining o'z ishiga mas'uliyati talabalarga bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam berishdir.

Gap o'qituvchi-pedagogning tarbiya, tarbiya va kamolotning mohiyati va mazmuni, demak, o'ziga ishonib topshirilgan farzandlar kelajagi uchun mas'uliyati haqida bormoqda.

O'qituvchi amalga oshirilgan o'quv faoliyati uchun javobgardir. Bugungi kunda pedagogik voqelikni yaratishni biladigan, pedagogik faoliyat mazmunini tushunadigan va o'zini pedagogik voqelikdagi o'zgarishlarning sababchisi deb biladigan, mas'uliyatli faoliyat oqibatlarini oldindan ko'ra oladigan va to'g'ri yechim topa oladigan o'qituvchiga talab mavjud.

O'qituvchi doimiy shaxsiy va kasbiy o'sish uchun javobgardir. Bu o'qituvchining kasbiy mahoratining ajralmas xususiyatidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. "2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi farmoni \ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022.-06/22/0082-son. B. 47.

2. Алферова Е.И. Психологические особенности ответственности учителей в процессе профессионального становления / Е.И.Алферова, Э.Ф.Зеер П Образование и наука: Известия Уральского отделения Российской академии образования. – 2007. – №6 (48). – С. 56 - 58.

3. Лейффрид Н.В. Ответственность как личностная детерминанта представлений об успешном человеке: дисс. канд. психол. наук: 19.00.01 / Лейффрид Наталья Валерьевна. – Краснодар, 2006. – 220 с.

4. Муздыбаев К. Ответственность личности в производственном коллективе. // Социально-психологические проблемы производственного коллектива. М., вт. Изд. «Образования» 2007. – 284 с.

5. Муздыбаев К. Стратегия совладания с жизненными трудностями // Журнал социологии и социальной антропологии, 1998. С. 97. (1-Выпуск).

6. Муконина М.В. Проблема профессиональной ответственности в контексте психологии отношений Текст. / М.В.Муконина // Научные труды Московского гуманитарного университета. 2002. – С. 56. №87.

7. Мясищев В.Н. Психология отношений: избранные психологические труды / В.Н.Мясищев. - М.: МПСИ Воронеж: МОДЭК, 1995. – 356 с.